

**O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining
tizim tashkilotlar tomonidan 2025 yil 1 choragida
amalga oshirilgan ishlari to'g'risida**

MA'LUMOT

I. O'zbekiston standartlar instituti

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash yo'nali shida:

Standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida **1507 nafar** mutaxassislar malakasi oshirildi; Tadbirkorlik sub'ektlari va ishlab chiqarish korxonalarining **6282 nafar** mutaxassislarini malakasi oshirildi.

Muvofiqlikni baholash yo'nali shida:

Standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida **1045 nafar** (*rejaga nisbatan 6 baravarga*) mutaxassislar attestatsiyadan o'tkazildi.

Tadbirkorlarga uslubiy ko'mak ko'rsatish yo'nali shida:

"STANDART" ilmiy-texnik jurnalini elektron shaklini **1800 ta** (*rejaga nisbatan 120,0%ga*) tadbirkorlik sub'ektlariga tarqatildi.

183 ta xalqaro standartlar davlat tiliga tarjima qilindi.

Soxa tarmoqlari bo'yicha **1928 ta** standartlarning Jaxon savdo tashkilotiga mosligini ko'rib chiqish ishlari amalga oshirildi.

Standartlashtirish yo'nali shida:

126 ta tashkilot standartlari (TS) o'rniga **12 ta** milliy standartlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Standartlarni ekspertiza qilish yo'nali shida:

Joriy yilning 1-choragida 54 ta milliy standartlar loyihalari ekspertizadan o'tkazildi.

Standartlarning yagona axborot bazasi yo'nali shida:

Fonddagi milliy standartlar salmog'ini Xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish darajasi amalda **34,19 %ga** yetkazildi

Me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash bo'yicha:

Tadbirkorlik va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga **777 ta** standart foydalanish uchun yetkazildi.

Texnik qo'mitalar faoliyatini muvofiqlashtirish yo'nali shida:

O'zbekiston Respublikasi nomidan Xalqaro Standartlashtirish tashkiloti (ISO) da - **17 ta** (to'laqonli), **240 ta** (kuzatuvchi), Xalqaro Elektrotexnika Qo'mitasi (IEC) da - **4 ta** (to'laqonli) hamda Standartlashtirish bo'yicha Davlatlararo kengashining Standartlar byurosi (MGS) da - **97 ta** texnik qo'mitalarida a'zolar faoliyati ta'minlandi.

Vazirlik va idoralar qoshida Standartlar institutining 18.02.2025 yildagi 55/STQ-sod buyrug'i bilan "STQ 11" Statistik usullarini qo'llash sohasida standartlashtirish bo'yicha milliy texnik qo'mita hamda 26.03.2025-yildagi 76/STQ-sod qarori bilan "O'zbekkimiymash zavodi" aktsiyadorlik jamiyati huzurida "STQ 14" "Idishlar va uskunalar" sohasida standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitasi, **jami 2 ta** standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitasi tashkil etilgan.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va ommaviy axborot vositalarida chiqishlar bo'yicha:

Joriy yilning 1-choragida Institut tomonidan — **5 ta** ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Televidenieda — **10 ta**, Radioda — **10 ta**, Matbuotda — **5 ta**, Ommaviy axborot vositalarida — **261 ta** chiqishlar qilindi. O'tgan yil shu davrga nisbatan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar

3 baravarga, Televidenedagi chiqishlar — **3 baravarga**, Radiodagi chiqishlar **3 baravarga**, Ommaviy axborot vositalarida **5 baravarga** ko'p chiqishlar tashkil etildi.

II. O'zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi

Sinov laboratoriylarini modernizatsiya qilish yo'nalishida:

Yanvar-mart (mart) oylari davomida sinov laboratoriylarini akkreditatsiya talablariga moslashtirish, akkreditatsiya sohasini kengaytirish, yangi sinov usullarini qamrab olish maqsadida, jami **177 ta** o'lchash vositalari xarid qilindi.

Yanvar-mart oylari davomida jami **23 143 ta** shundan, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga **89** (*mart oyida 63 ta - Bojxona qo'mitasi 26 ta, O'z.Respublikasi Moliya Vazirligi 1 ta, Texnik jihatdan tartibga solish nazorat inspeksiysi 7 ta, boshqalar 29 ta*) sinov bayonnomalari rasmiylashtirildi.

Yanvar-mart oylari davomida **47 ta** maxsulotlar **sifatsizligi** aniqlandi.

oziq-ovqat 31 ta, elektrotexnika 4 ta, qurilish 5 ta, Elektromagnitmoslashuvchanlik 4 ta, polimer 1 ta, yengil sanoat 1 ta, metallurgiya 1 ta (shundan, mart oyida 20 ta elektr 5 ta, qurilish 1 ta, oziq-ovqat 14 ta) yaroqsiz deb topildi.

Laboratoriylarning sinov ko'rsatkichini 1 883 taga yetkazish:

Yil boshidan **275 ta** sinov ko'rsatkichiga kengaytirildi. **616 ta** sinov ko'rsatkichlari bo'yicha audit bo'lib o'tdi. **265 ta** sinov ko'rsatkichlarini o'zlashtirish bo'yicha Akkreditatsiya markaziga ariza taqdim etildi.

"Agelensy FOOD" MChJ "Korzinka" savdo belgisi ostida faoliyat olib boradigan savdolar tarmog'lari tashkil etayotgan logistika markazida "O'zTest" DMga maydon ajratilishiga kelishildi. Avval tayyorlangan laboratoriya loyihasi maydoni kattaligi uchun ajratilgan kichik maydonga qaytadan loyiha ishlab chiqilib, taqdim etildi.

Andijon va Samarqand filiallarida akkreditatsiya markazi tomonidan davriy baxolash auditlari o'tkazildi.

Elektrotexnika jixozlarining **code IP** qobig'ini himoyalanganlik darajasini aniqlovchi, qog'ozdan tayyorlanadigan qadoqlar sinovchi uskunalar yetkazib berilib, sinov usullari o'zlashtirildi.

Toshkent Sinov laboratoriylar majmuasi tomonidan akkreditatsiya sohasini kengaytirish bo'yicha, shuningdek, Olmaliq filialida ish joylarini baholash bo'yicha sinov usullari o'zlashtirilib, Akkreditatsiya markaziga ariza taqdim etildi.

Sertifikatlashtirish yo'nalishida:

Joriy yilning o'tgan davrida jami **8 365 ta**, shundan, **7 chizma 7 714 ta**, **3 chizma 649 ta**, **9 chizma 2 ta** sertifikati rasmiylashtirildi.

Yil boshidan **2 ta** mahsulot sifatsizligi aniqlanib, mahsulot **yaroqsiz deb topildi**.

"Toshkent" mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi akkreditatsiya doirasi avtomatik gaz gorelkalari, tabiiy gaz bilan ishlaydigan maishiy isitish pechkalari uchun gaz gorelkalari mahsulotlariga kengaytirish uchun hujjatlar tayyorlandi.

"Xorazm" mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi "Akkreditatsiya markazi" DM tomonidan 2025 yil 7 mart kuni O'ZAK.MS.0114-son bilan milliy reestrda ro'yxatdan o'tkazildi.

"Toshkent" mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi akkreditatsiya doirasi oyna mahsulotlariga kengaytirish uchun "**Toshkent-1**" "**Toshkent-2**" hamda Xorazm filialida mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlarini tashkil etish yuzasidan Akkreditatsiya markaziga **ariza taqdim qilindi**.

Xalol maxsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish organi tashkil etish bo'yicha, mutaxassisligi va sohasi oziq-ovqat yo'nalishi bo'lgan **14 ta** xodimlar ro'yxati tuzildi. O'zbekiston din ishlari qo'mitasidan **2 nafar** shar'iy masalalar bo'yicha xodimlar sertifikatlashtirish organiga biriktirildi. Veterinariya sohasidan **2 nafar** xodim jalb qilindi. Joriy yil 28 aprelda Turk standartlar instituti tomonidan Xalol standartlari bo'yicha malaka oshirish kursi tashkil etiladi. Sertifikatlashtirish organini akkreditatsiyadan o'tkazish uchun **NAK (Xalol akkreditatsiya tashkilotiga) ariza berildi**.

Sifat menejmenti tizimlari yo'nalishida:

Eksportchi korxonalarga xalqaro sifat tizimlarini joriy etishni kengaytirish maqsadida **1,6 mingta** korxonada xalqaro sifat tizimlarini joriy etish belgilangan bo'lib, joriy yil boshidan **382 ta** korxonaga menejment tizimlari joriy qilinishiga ko'maklashilib, **muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtirildi**.

Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idorasi 2025 yilda **IQNet** xalqaro tashkilotiga to'laqonli a'zolikka qabul qilinishiga erishish maqsadida Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi akkreditatsiya doirasini **ISO 22003-1:2022** va **ISO 50001:2019** standartlariga kengaytirish bo'yicha Akkreditatsiya markazi tomonidan 2024 yil 28-29 noyabr kunlari audit o'tkazildi. Audit natijalariga ko'ra, aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilib, Akkreditatsiya markazining **06/121-son** xabarnomasiga asosan Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idorasi akkreditatsiya doirasi **ISO 22000** va **ISO 50001** standartlariga kengaytirildi.

Yanvar-mart oylari davomida **74 ta** korxonalarda joriy etilgan menejment tizimlarini sertifikatlashtirish ishlari natijasida **204 ta ISO sertifikatlari** rasmiylashtirildi.

Eksport ko'maklashish byurosi yo'nalishida:

Respublika bo'yicha jami **6 527 ta**, (yanvar - mart oylarida **4 512 ta**) sanoat korxonalarda o'rganishlar o'tkazildi.

Qoraqalpog'istonda 362 ta, Andijonda 606 ta, Buxoroda 577 ta, Jizzaxda 420 ta, Qashqadaryoda 511 ta, Navoiyda 302 ta, Namanganda 662 ta Samarcandda 560 ta, Sirdaryoda 144 ta, Surxondaryoda 485 ta, Farg'onada 731 ta, Xorazmda 370 ta, Toshkent viloyatida 187 ta, Toshkent shahrida 610 ta.

Korxonalarda **85 ta** sohaga oid muammolar aniqlanib, shundan, **69 ta** korxonaning muammolari bartaraf etildi. Hal etilmagan muammolalar bo'yicha ularni bartaraf etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Kunlik o'rganilayotgan korxonalar ma'lumotlarini forms.standart.uz portaliga kiritib borilmoqda.

Hududlardagi **496 ta** eksportyor va eksport salohiyatiga ega korxonaga sohaga oid **610 marotaba** sohaga oid amaliy yordam va konsultativ xizmatlar (*standartlash 113 ta, metrologiya 86 ta, sertifikatlash 104 ta, menejment tizimlari masalalari 227 ta, qadoqlash va yorliqlash 46 ta, boshqa masalalar 34 ta*) ko'rsatildi.

Hududlardagi **37 ta** eksportyor korxonaga **82 ta** muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirildi.

Eksportyor korxonalarni sohaga oid imtiyozlar va yangiliklar bilan keng tanishtirishda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Farg'ona, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida Agentlik, Standartlar instituti, viloyat hokimliklari va boshqa manfaatdor tashkilotlar ishtirokida tashkil etilgan seminar-treninglarda

8 000 dan ortiq tadbirdorlik sub'ektlari ishtirok etishiga ko'maklashildi.

Hududiy filiallarda amalga oshirilgan ishlari:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Farg'ona, Andijon, Namangan, Qo'qon, va Toshkent viloyatlari hududiy filiallarida texnika xavfsizligi, kadrlar masalasi, axborot xavfsizligi hamda korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishlarida o'rganishlar olib borilib, seminar va targ'ibot ishlari o'tkazildi.

Xorazm hududiy filialida qurilish sohasida sinovlarni joyiga borib o'tkazish uchun mobil laboratoriya tashkil etish maqsadida **2 ta** Furgon tupidagi atotransport vositasi xarid qilindi.

Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish yo'nalishida:

Yanvar-mart oylarida turli yo'nalishlarda **241 nafar** xodimlar malakalari oshirildi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tavsiya qilingan bitiruvchilar va markazimiz saytida e'lon berilgan bo'sh ish o'rinalariga suhbat o'tkazilib, **15 nafar** bitiruvchi Hududiy filial va Toshkent shahridagi sinov laboratoriyalar majmuasiga ishga qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 martdag'i 177-son Qarori 4 ilovasi "Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, muvofiqlikni baholash, shuningdek veterenariya, karantin va sanitariya sohalari mutaxassislarining malakasini oshirish hamda ularni attestatsiyadan o'tkazish tartibi" to'g'risidagi Nizomga asosan, Standartlar institutida **225 nafar** malaka oshirgan va attestatsiyadan o'tkazilgan xodimlarning **193 nafari** attestatsiyadan o'tgan, **32 nafari** o'ta olmag'an.

2 ta Oliy ta'lim muassasalari bilan tuzilgan o'zaro hamkorlik shartnomalarga asosan tanishuv, ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyoti bo'yicha **20 nafar** talaba amaliyot o'tadi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tavsiya qilingan bitiruvchilar bilan suhbat o'tkazilib, **3 nafar** bitiruvchi sinov laboratoriyalar majmuasiga ishga qabul qilindi.

Markazda **15 nafar** xodim bilan mehnat shartnomalari tuzildi, **12 nafar** xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilindi.

Ilm fan yo'nalishida:

Markazda faoliyat olib borayotgan xodimlarning **136 nafari** bakalavr, **146 nafari** magistr diplomiga ega, 2024 yilda (**PhD**) ilmiy darajaga ega xodimlar soni **3 ta**ni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunga ularning soni **5 taga** yetkazildi.

Oliy ta'lidan keyingi ta'lim bosqichi tayanch doktoranturada Markazdagi laboratoriylar va hududiy filiallarida faoliyat olib borayotgan **17 nafar xodimlar mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy izlanishlar olib bormoqda**.

2025-2026 o'quv yili uchun magistraturaga hujjat topshirmoqchi bo'lganlar soni **7 nafarni** tashkil etadi.

Oliy ta'lidan keyingi ta'lim tizimini tashkil etish maqsadida Markaz huzurida Ilmiy kengash tashkil etildi.

"Ilmiy-sinov va sifat nazorati" **ilmiy-texnik jurnali faoliyati yo'lga qo'yilmoqda**.

"Ilmiy-sinov va sifat nazorati" ilmiy-texnik jurnali uchun hududiy filiallarda faoliyat olib borayotgan xodimlar tomonidan **15 ta maqola** jurnali talablari bo'yicha taqdim etildi.

Turkiya Respublikasi Ilmiy va texnologik tadqiqotlar kengashi (**TUBITAK**) bilan hamkorlikda, Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturi doirasida bajariladigan amaliy tadqiqotlar va innovatsion loyihalar bo'yicha "O'zbekiston-Turkiya" xalqaro qo'shma tanlovi "To'qimachilikda pardozlash va bo'yash korxonalaridan chiqadigan oqova suvlarni tozalash uchun tajriba-tozalash qurilmasini tashkil etish va tozalashning dastlabki usullari samaradorligini sinovdan o'tkazish" mavzusida tayyorlangan amaliy tadqiqot loyihasi Innovatsion rivojlanish Agentligiga taqdim etildi.

O'zbekistonda ilmiy-sinov va sifat nazorati tarixiga oid "O'zbekistonda sinov va sifat nazorati tarixi" ilmiy-ommabop to'mlamni yaratish ishlari bajarilmoqda.

Ilmiy-ommabop to'mlamning dastlabki loyiha ko'rinishi ishlab chiqildi.

Ommaviy axborot kommunikatsiyalar yo'nalishida:

Ommaviy axborot vositalarida **mart oyida** tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatilayotgan soha xizmatlarini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida ommaviy axborot vositalarida **67 ta** televideniyada **5 ta**, ijtimoiy tarmoqlarda **46 ta**, gazetada **2 ta**, saytlarda **6 ta**, radioda **2 ta** hamda **6 ta** videorolik tayyorlandi.

Milliy menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi tomonidan akkreditatsiya doirasini **IATF 16949** standartiga kengaytirish maqsadida mutaxassislar malakasini oshirish va sertifikatlashtirish idorasi hujjatlarini **IATF 16949** standartiga asosan qayta shakllantirish ishlari amalga oshiriladi.

Yuksalish KSZda tashkil etilishi rejalashtirilgan **5 ta** Qurilish, Elektrotexnika, Kimyopolimer, Yengil sanoat, Mebel mahsulotlarini sinash yo'nalishlaridagi imzolangan jami **60 ta** shartnoma asosida sinov uskunalarini yetkazib berish va o'rnatish ishlari olib boriladi.

Barcha laboratoriylarda Akkreditatsiya sohasini kengaytirish **924 ta** sinov usullariga yetkaziladi.

Laboratoriyaning Pskent tumani filialida qishloq xo'jaligi texnikasini ko'ndalang statik barqarorligi (*ugol oprokidovaniya*) stendini yasash va o'rnatish bo'yicha qurilish

ishlari amalga oshirilmoqda. Laboratoriyyada qishloq xo'jaligi texnikalarini ko'ndalang statik barqarorlik burchagini aniqlash sinovlari to'liq qamrab olinadi.

Kod IP sinov usullari Toshkent sinov laboratoriyalari majmuasida yo'lga qo'yiladi.

Velosiped sinovilari Qo'qon filialida yo'lga qo'yiladi va akkreditatsiya sohasi kengaytiriladi.

Jizzax filialida **Yunitest MChJ** bilan xamkorlikda katta diametrli trubalar sinovi o'zlashtiriladi va akkreditatsiya sohasi kengaytiriladi.

Xalqaro provayderlar shartnoma imzolanadi va reja jadvalga muvofiq **10 ta** solishtiruv sinovlari o'tkaziladi.

Hududlardagi **12 250 ta** sanoat korxonalari manzilli o'rganiladi, mavjud muammolar bartaraf etiladi va sohaga oid amaliy yordamlar ko'rsatiladi.

160 ta eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar uchun muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtiriladi.

1244 ta eksportyor va eksport salohiyatiga ega korxonalarga, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, mahsulotlarni xalqaro talablar asosida qadoqlash va yorliqlash masalalariga oid konsultativ xizmatlar ko'rsatish, eksportga berilgan qonunchilikdagi imtiyozlar bilan tanishtirish hamda broshyura va tarqatma materiallar bilan ta'minlanadi.

2025 yilning II-choragida Milliy menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idorasi mutaxassislarini **IATF 16949:2016, ISO 37001:2016** standartlariga asosan malakasini oshirish ishlari aprel oyida amalga oshirish rejallashtirilgan. Malaka oshirish jarayonlaridan so'ng **IATF 16949:2016** standartiga asosan akkreditatsiya doirasini kengaytirish ishlari rejallashtirilgan. Shuningdek, **6 nafar** mutaxassislarni **ISO 14001** "Ekologik menejment tizimi" standartiga asosan malakasini oshirish va auditorlikka tayyorlash ishlari amalga oshiriladi.

Toshkent shahrida **Toshkent-1** sertifikatlashtirish organi tashkil etiladi.

Chirchiq hududiy filialida qishloq xo'jaligi texnikalarini ko'ndalang statik barqarorlik burchagini aniqlash sinovlari to'liq qamrab olinadi.

Korxonaning ishslash tizimini to'liq elektronlashtirish ya'ni "DLP-security" tizimiga o'tish bo'yicha umumiyl dastur ishlab chiqish. Axborot kommunikatsiya texnologilarini rivojlanayotgan bir qatorda kiberjinoyat ham rivojlanib bormoqda. Ushbu tizim orqali markazni to'liq nazorat qilish, kiberxavfsizlikni ta'minlash, hujjatlar almashinishini, ish jarayonlarini kuzatish, ma'lumotlar bazasi shakllantirishga erishiladi.

III. O'zbekiston milliy metrologiya instituti

Milliy etalonlar bazasini rivojlantirish, laboratoriyalarni modernizatsiya qilish hamda infratuzilma yaratish bo'yicha

2024 yilda moliyalashtirilgan "Suyuqliklarning elektr o'tkazuvchanligi birligi" **etaloni** keltirilib, etalonlar soni **30 ta**ga yetkazildi.

Joriy yilning aprel oyida "G'adir-budirlik kattaliklari" **etaloni** keltirilishi kutilmoqda.

2025 yilda **9 ta** etalon xarid qilish belgilangan. Texnik topshiriqlar ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda ekspertizadan o'tkazish maqsadida "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKga taqdim etildi.

Bundan tashqari, laboratoriyalarning moddiy-texnik bazasini yanada takomillashtirish maqsadida jami **26 ta** (*shundan 20 tasi hududiy filiallar*) o'lchash vositalari va yordamchi uskunalar xarid qilindi.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha:

Xalqaro tarozi va o'lchovlar byurosining (BIPM) a'zosi sifatida qo'shilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi **Qonun** hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiining **qaror loyihalari ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.**

Xalqaro qonunlashtiruvchi metrologiya tashkiloti (*OIML*) hujjatlari asosida metrologik me'yor va qoidalarni qabul qilish reja-jadvaliga asosan jami **20 ta** milliy **standart** qabul qilish rejalashtirilgan bo'lib, **1 tasi** o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olinib, **6 tasi** ro'yxatga olish uchun Standartlar institutiga kiritildi.

O'lhashlar yagona birlikda bo'lishni ta'minlash borasida jami **10 ta** milliy **standartlar** (*qonunlashtiruvchi metrologiya, ionlovchi nurlanish, putur etkazmasdan tekshirish, yoqilg'i, o'lhashlarni bajarish uslubiyiyoti, elektr va magnetizm, turini tasdiqlash, gaz sarfi va bosim yo'nalishlari*) **ishlab chiqildi.**

Xalqaro darajada etirof etilish bo'yicha:

Xalqaro tarozi va o'lchovlar byurosining (*BIPM*) bazasida Respublikamizning kalibrlash va o'lhash imkoniyatlari to'g'risidagi yozuvlari (*SMS-qatorlar*) radiatsiya yo'nalishi bo'yicha qo'shimcha **3 taga kengaytirilib**, ularning soni **8 taga yetkazildi.**

Shuningdek, *SMS-qatorlar* sonini yanada kengaytirish maqsadida KOOMYeT doirasida **3 ta yangi** (*vaqt va chastota yo'nalishi*) solishtirish loyihasida ishtirok etilmoqda.

Ilmiy salohiyatni kengaytirish hamda metrolog mutaxassislarining bilim va ko'nikmalarini oshirish borasida:

Oliy ta'lrim muassasalari bilan hamkorlikda **3 ta etalon** va yuqori aniqlikdagi o'lhash vositalarini **yaratish** bo'yicha loyiha pasportlari **Innovatsion** rivojlanish **agentligiga taqdim etildi.**

Institut mutaxassislarining ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida **9 nafar** mutaxassislar **PhD** maqomiga ega bo'lish bo'yicha mustaqil izlanuvchi sifatida **ro'yxatdan o'tshdi.**

Xodimlar malakasini hamda ilmiy salohiyatni oshirish bo'yicha institutning **8 nafar** (*Chexiya, Rossiya, Xitoy, Slovakiya*) mutaxassislari xorijning etakchi metrologiya institutlarida seminar hamda o'quv kurslari orqali malaka oshirdi.

Laboratoriyalarning xizmat qamrovini kengaytirish bo'yicha:

Respublika sanoat sohalarida aniq o'lhashlarga bo'lgan ehtiyojni yanada qamrab olish maqsadida **Qoraqalpog'iston Respublikasining kalibrlash** (*bosim*), **Samarqand filialining qiyoslash** (*massa, bosim va sarf, fizik-kimyo*) laboratoriyasini **akkreditatsiya doirasi kengaytirildi.**

Shuningdek, institutning **Radiotexnik kattaliklar, ionlanushi nurlanish va putur yetkazmasdan tekshirish** bo'limi **vaqt va chastota** hamda Geometrik va mexanik kattaliklarni o'lhash bo'limi **geometriya** laboratoriyasining **qiyoslash** bo'yicha akkreditatsiya doirasi kengaytirildi.

Agentlik tomonidan tasdiqlangan reja-jadvalga asosan **yanvar** oyida **Qoraqalpog'iston Respublikasida** sayyor qabul o'tkazildi.

Gaz qorishmalari ishlab chiqarish bo'yicha **innovatsion laboratoriya barpo etish** maqsadida loyiha pasporti ishlab chiqildi.

IV. "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM.

2025 yil yanvar-mart oylarida jami **83 ta** buyurtma (**27 ta** akkreditatsiya, **56 ta** kengaytirish) kelib tushgan bo'lib, shundan;

4 ta ijrosi (**2 ta** akkreditatsiya, **2 ta** kengaytirish) ta'minlangan;

2 ta buyurtma buyurtmachini xohishiga ko'ra (**1 ta** akkreditatsiya, **1 ta** kengaytirish) bekor qilingan;

77 ta buyurtma (**24 ta** akkreditatsiya, **53 ta** kengaytirish) akkreditatsiya jarayonlari davom etmoqda.

2025 yilning yanvar-mart oylarida davomida jami **17 ta** MBO va MX akkreditatsiyadan o'tkazildi (jami **572 ta** mavjud), jumladan:

7 ta sinov laboratoriyalari (jami **283 ta**);

5 ta qiyoslash laboratoriyalari (jami **113 ta**);

2 ta mahsulotlarni sertifikatlashtirish organi (jami **90 ta**);

2 ta menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi (jami **31 ta**);

1 ta xodimlarni sertifikatlashtirish organi (jami **2 ta**) akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Hisobot davrida **108 ta** akkreditatsiya qilingan sub'ektlarda davriy baholash o'tkazilib, natijada **18 ta** akkreditatsiya guvohnomasining amal qilish muddati tasdiqlangan, **87 ta** (75,0%) to'xtatilgan, **3 ta** qaror qabul qilish jarayonida.

Yuqoridagi o'tkazilgan davriy baxolashlarning **16 tasi** mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlari hisobiga to'g'ri kelib, shulardan **8 tasi** (50,0%) akkreditatsiya guvohnomasi to'htatilgan, **6 tasi** tasdiqlangan, **2 tasi** qaror qabul qilish jarayonida.

2025 yilning mart oyida tasdiqlangan Media rejaga asosan radioda **7 ta**, gazetada, **1 ta** elektron nashrlarda **3 ta** maqola e'lon qilindi, You Tube da **2 ta**, Markaz sayti va ijtimoiy tarmoqlar orqali jami **115 ga** yaqin chiqishlar qilindi.

V. Nazorat inspeksiya.

Qonunchilik talablarini buzilishini oldini olish maqsadida joriy yil boshidan **6237 ta** tadbirkorlik sub'ektiga ogohlantirish xatlari va tarqatma materiallar yuborildi.

Qoraqalpog'iston 426 ta, Andijon 295 ta, Buxoro 381 ta, Jizzax 292 ta, Qashqadaryo 332 ta, Navoiy 464 ta, Namangan 340 ta, Samarqand 487 ta, Surxondaryo 437 ta, Sirdaryo 382 ta, Toshkent vil 337 ta, Farg'onha 518 ta, Xorazm 372 ta, Toshkent shahar 1174 ta.

Sertifikat xujjatlari nazorati yo'nalishida, Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiysi tomonidan hukumat topshirig'iga asosan nazoratga olingan mahsulotlar: yani, **lift** va **eskalator** mahsulotlariga rasmiylashtirilgan **145 ta** hujjatlar to'plamidan **33 tasida kamchiliklar** aniqlanganligi sababli bartaraf etish bo'yicha qaytarildi, **112 ta** hujjatlar to'plamiga **ruxsat** berildi.

- **kabel, ketyol, radiator, xolodilnik, va konditsioner** mahsulotlariga rasmiylashtirilgan **379 ta** hujjatlar to'plamidan **72 tasida kamchiliklar** aniqlanganligi sababli bartaraf etish bo'yicha qaytarildi, **307 ta** hujjatlar to'plamiga **ruxsat** berildi.

- **armatura** va **metall list** maxsulotlariga rasmiylashtirilgan **129 ta** hujjatlar to'plamidan **33 tasida kamchiliklar** aniqlanganligi sababli bartaraf etish bo'yicha qaytarildi, **96 ta** hujjatlar to'plamiga **ruxsat** berildi.

- **tsement** maxsulotlariga rasmiylashtirilgan **14 ta** hujjatlar to'plamidan **2 tasida kamchiliklar** aniqlanganligi sababli bartaraf etish bo'yicha qaytarildi, **12 ta** hujjatlar to'plamiga **ruxsat** berildi.